

KONCHILIK SANOATIDA OG‘IR YUK TASHUVCHI AVTOSAMOSVALLARNING HAVO FILTRLARINING ISHLASH MUDDATLARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

A.A.Gaffarov, L.N.Atakulov, N.O. Abdouahatov

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

azamatgaffarov2@gmail.com

Atakulov347@scientifictext.ru


nozimjonabdouahatov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada konchilik sanoatida keng qo‘llaniladigan og‘ir yuk tashuvchi avtosamosvallarning havo filtrlari ishlash muddatiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari havo filtrlari resursini oshirish va texnik xizmat ko‘rsatish muddatini uzaytirishga qaratilgan muhim tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Avtosamosval, havo filtri, eskirish jarayoni, chang zarralari, texnik xizmat, filtratsiya samaradorligi.

Kirish. Avtomobil transporti dunyoda keng tarqalgan transport hisoblanib tashish hajmi va ular karyerlarda ishlash bo‘yicha boshqa transport vositalariga nisbatan keng qo‘llaniladi. Avtomobil transporti karyerlarda foydali qazilmalarni, konchilik sanoati kimyoviy mahsulotlarni, qurilish materiallarini hamda yordamchi uskunalarini tashishda ishlatiladi.

Material va metodlar. Konchilik sanoatida og‘ir yuk tashuvchi transport vositalarining ishonchliligi va samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki karyer avtosamosvallari dvigatellarining ishlash samaradorligi bevosita havo filtri holatiga bog‘liq. Chang miqdorining ortishi filtr xizmat muddatini 30-40% ga qisqartiradi. Namlik darajasining 50% dan oshishi filtrning tiqilib qolish ehtimolini oshiradi. Harorat 80°C dan yuqori bo‘lsa, filtr materiali deformatsiyaga uchraydi. Havo filtrining ishdan chiqishi dvigatel samaradorligini pasaytirib, yoqilg‘i sarfini oshiradi va ekspluatatsiya xarajatlarini ko‘paytiradi.



1- rasm. Ichki yonuv dvigetilli ishchi mexanizmlari

Asosan yoqilg'i sarfini oshishi bilan qatorda ichki yonuv dvigetilidagi ishchi uzellarining ishlash rejimiga bevosita ta'siri natijasida yemirilish va sinishlarini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. 1-rasmda ichki yonuv dvigetilining shatun va porshenning yemirilishi va yallig'lanishi hisobiga zararli chang zarralarining ta'siridan yoqilg'i sarfi keskin ortib ketishini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa va taklif. Ushbu modelga ko'ra, filtrning ishlash samaradorligi eksponensial tarzda kamayadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, havo filtrlari samaradorligi 80% dan pastga tushganda ularning almashinushi talab qilinadi. Ichki yonuv dvigatelining uzoq muddat ishlashini ta'minlash uchun havodagi zararli chang zarralaridan samarali filrlash uchun havo filrlariga yordamchi filtr qo'yish orqali ish holatini optimal holatda saqlab qolishimiz mumkin bo'ladi. Qo'shimcha o'rnatilgan mahalliylashtirilgan filtr o'rnatish orqali dvigatelning ishlash samaradorligini oshirish va uning xizmat muddatini uzaytirish mumkin. Kelajakda nanofiltrlar va katalitik tozalash usullarining yanada rivojlanishi ushbu sohada yangi imkoniyatlar yaratishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreev A.V., Dyakov V.A., Sheshko E.E. "Transportnie mashini i avtomati-zirovannie kompleksi otkritix razrabitok": Uchebnik dlya vuzov. — M.: Nedra, 1975.-463 s.
2. Vasilev M.V. "Transport glubokix karyerov". — M.: Nedra, 1983. — 360 s.
3. Mariev P.A., Kuleshov A.A., Egorov A.N., Ziryanov KV. "Karyerniy avtotransport stran SNG v XXI veke". — SPb.: Nauka, 2006. — 387 s.
4. A.A. Gaffarov "Karyer va shaxtalarda avtotransportlarning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni asoslash" Multidisciplinary Scientific Journal